

TALABALARNING MA'NAVIY-AXLOQIY KOMPETENTLIGINI JADIDCHILIK PEDAGOGIKASI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION PEDAGOGIK MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdullayev Ro'zimuxammad Akramjon o'g'li –

Farg'ona davlat universiteti, doktoranti

E-mail: abdullayevrozimuhammad232@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-0197-8145>

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini jadidchilik pedagogikasi asosida rivojlantirish masalasi atroflicha yoritilgan. Maqolada jadid ma'rifatparvarlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari zamonaviy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan holda tahlil qilinib, ularning bugungi kundagi pedagogik imkoniyatlari aniqlangan. Tarixiy-pedagogik tahlil, qiyosiy yondashuv va modellashirish metodlari asosida talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion pedagogik mexanizm ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari jadidlar merosini o'quv va tarbiyaviy jarayonga tizimli tatbiq etish talabalarda axloqiy barqarorlik, milliy ong va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Olingan xulosalar oliy ta'lim tizimida ma'naviy tarbiya jarayonini takomillashtirishda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: jadidchilik pedagogikasi, ma'naviy-axloqiy kompetentlik, ma'naviy tarbiya, milliy pedagogik meros, innovatsion pedagogik mexanizm, oliy ta'lim, axloqiy barqarorlik, jadid ma'rifatparvarlari.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИННОВАЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ПЕДАГОГИКИ ДЖАДИДИЗМА

Аннотация. В данной статье подробно освещается вопрос развития духовно-нравственной компетентности студентов на основе джадидской педагогики. В статье анализируются взгляды джадидских просветителей на образование и воспитание в интеграции с современной системой образования, определяются их педагогические возможности на сегодняшний день. На основе историко-педагогического анализа, сравнительного подхода и методов моделирования разработан инновационный педагогический механизм, направленный на развитие духовно-нравственной компетентности студентов. Результаты исследования показывают, что систематическое внедрение наследия джадидов в учебно-воспитательный процесс служит развитию у студентов нравственной устойчивости, национального самосознания и социальной ответственности. Полученные выводы имеют научно-практическое значение в совершенствовании процесса духовного воспитания в системе высшего образования.

Ключевые слова: джадидская педагогика, духовно-нравственная компетентность, духовное воспитание, национальное педагогическое наследие

IMPROVEMENT OF THE INNOVATIVE PEDAGOGICAL MECHANISM FOR THE DEVELOPMENT OF SPIRITUAL AND MORAL COMPETENCE OF STUDENTS BASED ON JADID PEDAGOGY

Abstract. *This article comprehensively covers the issue of developing students' spiritual and moral competence based on Jadid pedagogy. The article analyzes the views of Jadid enlighteners on education and upbringing in integration with the modern education system and determines their pedagogical capabilities today. Based on the methods of historical-pedagogical analysis, comparative approach, and modeling, an innovative pedagogical mechanism aimed at developing the spiritual and moral competence of students has been developed. The research results show that the systematic introduction of the Jadid heritage into the educational process serves the development of moral stability, national consciousness, and social responsibility in students. The obtained conclusions have scientific and practical significance in improving the process of spiritual education in the higher education system.*

Keywords: *Jadid pedagogy, spiritual and moral competence, spiritual education, national pedagogical heritage,*

KIRISH

Har bir millatning o'z ma'naviy qiyofasi mavjud. Har tomonlama taraqqiy topib borayotgan jamiyatimizda ma'naviyatni yuksaltirish dolzarb vazifalardan biridir. Ma'naviyatimizni yanada rivojlantirishda esa millatimiz tarixi, ma'naviy qiyofasini o'zida badiiy aks ettirgan tarixiy-badiiy hamda ilmiy asarlarning ahamiyati va o'rni beqiyosdir. Bugungi kunda jadidchilik harakatini chuqur o'rganish XIX-asr oxiri-XX-asr boshlarida faoliyat yuritgan taraqqiyparvarlarning ezgu maqsadlarini keng targ'ib qilish va bugungi ta'lim tizimi bilan integratsiya qilish muhim ahamiyatga egadir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida bu borada alohida to'xtalib o'tdi. "Biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi". Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g'oyat og'ir sharoitda ilm-ma'rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g'oyalarini dadil ko'tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o'rganishimiz lozim. Ularning ulug' maqsadlar yo'lidagi mardona

kurashi va fidoyiligi Yangi O'zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo'lib xizmat qilishi zarur" deya ta'kidlab o'tdilar. Darhaqiqat, bugungi axborot asrida jamiyat oldida turgan vazifalardan biri ma'naviy-axloqiy kamolotni ta'minlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, intellektual salohiyatli shaxslar etib tarbiyalash masalasidir.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, jadid bobolarimizning sinovdan o'tgan tajribasi va g'oyalari Yangi O'zbekiston jamiyatini barpo etish strategiyasi bilan hamohang bo'lib Uchinchi Renessans davrini bunyod etishda muhim ma'naviy manba vazifasini o'tamoqda. Shu nuqtai nazardan jadidchilik merosi va ularning ilg'or pedagogik qarashlari va asarlaridagi tarbiya saboqlari hozirgi kunda yoshlar tarbiyasida o'z ahamiyatini yo'qotmagan. "Axloq" kishilarning o'zaro munosabatlari, oilaviy hayot va ijtimoiy muhitda namoyon bo'ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvori hamda odob-axloq me'yorlari majmuini ifodalaydi. Insoniyat taraqqiyoti jarayonida axloq jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim ijtimoiy-ma'naviy omil sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Sharq mutafakkirlari ta'limotida insonni axloqiy jihatdan kamol toptirish, uning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishi va ma'naviy qiyofasini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining yetakchi shartlaridan biri sifatida e'tirof etilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini jadidchilik pedagogikasi asosida rivojlantirish masalasini o'rganishda jadid mutafakkirlarining asarlari hamda ularning ilmiy merosini tahlil qilgan zamonaviy tadqiqotlarga tayanish muhim ilmiy-metodologik ahamiyat kasb etadi. Jadidlar ijodini milliy tafakkur, istiqloq g'oyalari va ma'naviyat masalalari nuqtayi nazaridan tahlil etgan tadqiqotlarda B.Qosimov ushbu muammoni asosan tarixiy-adabiy yo'sinda yoritgan bo'lsa, boshqa tadqiqotlarda S.Shaturayeva jadidlarning ilmiy merosini pedagogik kurslarda o'qitish metodikasini va jadid g'oyalarini tarixiy va ma'rifiy kontekstda talabalarga yetkazish usullarini tahlil qilgan, o'z taklif va mulohazalarini taqdim etganlar. Ushbu tadqiqotlardan farqli o'laroq ushbu ishda jadidlarning pedagogik qarashlari talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik mexanizm sifatida o'rganildi. Jadidlar asarlarida

ilgari surilgan axloqiy mas'uliyat va ma'naviy yetuklik g'oyalari tarixiy-adabiy kontekstda talqin etilgan bo'lsa, ushbu tadqiqotda ular zamonaviy oliy ta'lim sharoitiga mos holda pedagogik mexanizm darajasida asoslandi.

Jadid mutafakkirlari ta'lim va tarbiyani uyg'un olib borib, millatning ongi va axloqini yuksaltirishni maqsad qildilar. Turkistonni mustaqil davlat sifatida barpo etish, xalqni jahon xalqlari safida erkin va ozod holda ko'rish g'oyasi ma'rifatparvarlik hamda jadidchilik harakatining vujudga kelishida muhim omil bo'ldi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, So'fizoda, Tavallo kabi ko'plab millat fidoyilari ilm-fan, ma'naviyat va ma'rifatni rivojlantirish yo'lida fidokorona faoliyat olib bordilar. Jadid ziyolilari xalqning intellektual salohiyatini yuksaltirish, tafakkur tarzini yangilash va shu orqali milliy ongni uyg'otishni o'z faoliyatlarining asosiy vazifasi deb bildilar. Ayniqsa, jamiyatda yaxshilik va yomonlikni, nur va zulmatni anglash hamda farqlash ko'nikmalarini shakllantirish jadid adabiyoti namoyandalarining muhim ma'naviy-ma'rifiy vazifalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Masalan, Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida axloqiy tarbiyaning ahamiyatini atroflicha yoritib, "Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir", deya ta'kidlagan edi. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi esa o'qimagan va tarbiya ko'rmagan yosh bolaning fojeali qismatini ko'rsatib, johillik va keksalarni hurmat qilmaslik qanday falokatga olib kelishini ibratli tarzda ochib beradi. Ushbu asarda domulla obrazi orqali "bu badbaxtlik va musibatga sabab, jaholat va nodonlikdir, beilmlik va tarbiyasizlikdir. Uyingizni nodonlik buzdi. Sizni beilmlik xonavayron qildi. O'g'lingizni beilmlik Sibirga yuboradi". Xuddi shuningdek, jadid adabiyotining yorqin namunalari qatorida Munavvarqori Abdurashidxonovning tarixiy risolasi "Samarqand tarixi" ham yosh avlodga o'z yurtining o'tmishi va madaniy merosini o'rgatish orqali ularda milliy g'urur va ma'naviy yuksalishni targ'ib qilgan.

Jadidchilik harakati namoyandalari G'arbiy Yevropa ma'rifatparvarlari kabi ilm-ma'rifatni, zamonaviy taraqqiyotni bayroq qilib ko'tardilar, taraqqiyotga

to'g'anoq bo'layotgan mutaassib ulamolarga, qadimchilarga qarshi keskin kurash olib bordilar. Abdulla Avloniy - buyuk shoir, yozuvchi, dramaturg, pedagog, jurnalist va xalq arbobi, o'zbek madaniyati va adabiyotining asoschilaridan biri. U o'zbek pedagogikasi, dramaturgiyasi, milliy teatri, jurnalistikasi, bolalar adabiyotini yangi darajaga olib chiqqan. Ilmiy ishlari O'zbek tilida bolalar uchun darsliklar: "Birinch muallim", "Ikkinchi muallim", "Tarix", "Turkiy Guliston yoxud ahloq". Pyesalari: "To'y", "Qurultoy", "Layli va Majnun", "Ikki muhabbat", "Advokatlik osonmi?", "O'liklar", "Pinak", "Biz va siz", "Bo'ron", "Portugaliya inqilobi". Masallar: "Tulki va qarg'a". Dostonlari: "Mardikorlar ashulasi", "Vatan", "Maktab", "Bog'cha", "Yalqov shogird tilidan", "Tog'lardan bir manzara", "Millatga xitob", "Ishchilardan tortiq", "Ko'klam keldi", "Tovush". Maqolalari: "Maqsad va maslak", "Xolimizga doir". Hikoyalari: "Hasad balosi". Boshqa ishlari: 1907-yil o'zbek tilida "Shuhrat" gazetasini nashrdan chiqaradi. 1913-yil "Turon" truppasiga asos soladi. 1917-yil "Osiyo" gazetasini nashrdan chiqaradi. Avloniy ijodiy merosi ma'naviy-ma'rifiy tarbiya g'oyasining targ'ibotchisidir. Uning asarlarida ilgari surilgan ta'lim-tarbiyaga oid fikrlar milliy ma'naviyatimiz rivojlanishida qimmatli bir manba bo'lib xizmat qiladi. Avloniy bolaning odob-axloqi haqida fikrni ilgari surdi. Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda 4 bo'limga ajratadi:

1. Tarbiyaning zamon.
2. Badan tarbiyasi.
3. Fikr tarbiyasi.

4. Axloq tarbiyasi hamda uning ahamiyati xususida fikr yuritadi. "Tarbiyaning zamon" bo'limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini bu ishga hammani: ota-ona, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta'kidlaydi. Albatta, xalqimiz orasida „Bir bolaga yetti mahalla ota-ona“ degan naql yuradi. Tarbiya xususiy ish emas, milliy ijtimoiy ishdir. Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o'zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog'langan. Uning boy pedagogik merosi milliy maktab, milliy pedagogikani rivojlantirishda qimmatbaho manba bo'lib xizmat qiladi. Mahmudxo'ja Behbudiy nafaqat yangi usul maktablarini tashkil qilish balki, ularni zamonaviy darsliklar, dunyoviy ilmlar bilan ham ta'minlash ishiga bosh-qosh bo'ldi. O'zi ham

qator darslik va risolalar yaratdi. 1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi, Rajabamin qishloqlarida uning tashabbusi bilan yangi maktablar ochildi. Behbudiy maktablar uchun "Risolai asbobi savod", "Risolai jug'rofiyai umroniy", "Kitob ul-atfol", "Amaliyoti Islom", "Tarixi Islom" kabi darslik va risolalar yozadi. Behbudiy Turkistonda jadid maktablarining tolmas targ'ibotchisi va tashabbuskorlaridan biri. Turkiy va fors-tojik tilidagi «Risolai jug'rofiyai umroniy», «Risolai asbobi savod», «Kitobat ul-atfol», «Tarixi islom» kabi maktab kitoblari muallifi. Behbudiyning ma'rifatparvarlik g'oyalari, jamiyatni isloh qilish, jaholatga qarshi kurashish masalalaridagi fikrlari uning "Padarkush" asarida yorqin ifodalangan. Mazkur asarda dunyoviy ilmlarni egallashning ahamiyati, keng dunyoqarashli yoshlarning mamlakatni taraqqiy ettirishdagi roli mohirona tasvirlangan.

Axloqiy kompetentsiyani rivojlantirish muammosi bugungi kunda har qachongidan ham muhimroqdir. Talabalar bilim olishlari va pedagogik jarayonning mohiyatini chuqur anglab olishlari kerak. O'qituvchi ham olim, ham tarbiyachidir. Birinchisi katta salohiyatga ega, bu esa o'qituvchilarning ixtisoslashtirilgan, tizimli tayyorgarligi bilan izohlanadi. Ikkinchisi esa unchalik aniq emas, chunki u odatda hayot va pedagogik tajriba orqali o'zlashtiriladi. Oliy ta'limning yangi vazifalari o'qitishda professionallikni tobora ko'proq talab qilmoqda, uning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri axloqiy komponent hisoblanadi. Buning sababi shundaki, zamonaviy jamiyatda ishlab chiqarish va iste'mol odamlarning munosabatlarini bir narsa bilan boshqa narsaga almashtirmoqda. Odamlarda insonga yoqadigan his-tuyg'ularni tushunish qiyinlashadi va doimiy ishonchsizlik hissi paydo bo'ladi, bu esa o'qituvchi-shogird tizimidagi o'zaro munosabatlarning samaradorligini keskin pasaytiradi. Bolalar odamlarning boshqalar bilan o'zaro munosabatini rad etish va o'zlarining befarqligini oshirish orqali ushbu ichki inqirozni hal qilishga va barqarorlikni saqlashga harakat qilishadi. Bolalarning qo'polligi asta-sekin insoniy munosabatlarni quritib, doimiy janjal va nizolarning paydo bo'lishiga olib keladi. "Axloqiy barqarorlik" tushunchasi aniqlandi: axloqiy barqarorlikni shaxsning noqulay tashqi omillardan nisbiy mustaqilligi ta'minlanadigan va mavjud sharoitlarda harakat qilib, ular axloqiy xulq-atvor tamoyillari, normalari va qoidalariga amal qiladigan, nafaqat salbiy ta'sirlarga qarshi turishga, balki

vaziyatlarga faol ta'sir ko'rsatishga, ichki va tashqi dunyosini o'zgartirishga qodir bo'ladigan rivojlanish bosqichi sifatida tavsiflash mumkin. Bu shaxsning ijobiy umuminsoniy va professional qadriyatlarga muvofiq xulq-atvorni tanlash qobiliyatidir.

Talabalarni ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish, mazkur vazifani amalga oshirishda milliy pedagogik merosga murojaat qilish, xususan, jadid ma'rifatparvarlarining ta'lim-tarbiya haqidagi ilg'or g'oyalaridan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "O'z tarixini bilmagan va o'tmishini unutgan millatning kelajagi yo'q" iborasi to'g'ri, chunki tarix millatning kimligini, qayerdan kelganini va qayerga ketayotganini ko'rsatuvchi yo'l xaritasi, uni unutish esa o'zlikni yo'qotish, xato-kamchiliklardan saboq olmaslik va tanazzulga yuz tutish demakdir. Tarixiy xotira va bilim xalqni birlashtiradi, ularga kuch beradi va yangi davlatlar bunyod etishda poydevor bo'ladi. – shu nuqtai nazardan, xalqimiz tarixi va madaniy merosidagi boy tarbiya an'alarini bugungi ta'lim jarayoniga singdirish komil inson tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Jadidchilik pedagogikasi aynan shunday boy meros bo'lib, jadid adib va pedagoglari o'z asarlarida yosh avlodni ma'naviy yuksak shaxs etib tarbiyalashga xizmat qiluvchi ko'plab fazilatlarni tarannum etgan. Ularning didaktik asarlarida ifodalangan saxovatlilik, halollik, insonparvarlik, do'stlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, sabr-qanoatlilik, xushmuomalalik, mardlik, e'tiqodlilik, adolatlilik, sadoqat, yurtga muhabbat, ijodkorlik, zukkolik kabi milliy va umuminsoniy fazilatlarni har bir yosh ongiga singdirish ma'naviy tarbiyaning asosiy talabi sifatida ilgari surilgan. Shu sababli, mazkur maqolada jadidchilik pedagogikasiga tayangan holda talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik mexanizmni takomillashtirish yo'llari yoritiladi. Xususan, mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida barcha yo'nalish talabalari uchun "Jadidlar merosi" nomli maxsus fan joriy etish taklifi ham aynan shu g'oyadan kelib chiqqan bo'lib, zamonaviy ta'limni milliy tarbiya qadriyatlari bilan boyitish maqsadini ko'zlaydi.

Ushbu tadqiqotda pedagogik va tarixiy manbalarni tahlil qilish, qiyosiy metod hamda modellashtirish kabi ilmiy usullar qo'llanildi. Avvalo, Sharq mutafakkirlarining (Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy va b.) va jadid


ma'rifatparvarlarining (A. Avloniy, M. Behbudiy, A. Fitrat va boshqalar) ta'lim-tarbiyaga oid asarlari chuqur o'rganilib, ulardagi ma'naviy-axloqiy tarbiya g'oyalari tahlil qilindi. Jumladan, Abdulla Avloniy asarlarida axloq tarbiyasi xususiy ish emas, balki butun jamiyat mas'ul bo'lgan ijtimoiy jarayon ekani ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan bo'lib, yosh avlod tarbiyasiga jamiyatning har bir a'zosi mas'ul ekanligi takidlangan. Shuningdek, O'zbekistonda qabul qilingan normativ hujjatlar va konsepsiyalar (masalan, "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi") hamda zamonaviy pedagogik tadqiqotlar tahlili orqali talabalarda ma'naviy-axloqiy kompetentlikni shakllantirishning innovatsion yondashuvlari o'rganildi.

Tadqiqot jarayonida jadid pedagogikasi asosida talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etishga qaratilgan mantiqiy-tuzilmaviy model ishlab chiqildi. Ushbu model talabalarda ma'naviy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish jarayonini belgilovchi maqsad, vazifalar, mazmun, tamoyillar, usullar hamda pedagogik vositalar kabi tarkibiy komponentlarni o'z ichiga oladi. Model negizida pedagogik eksperimentning ilmiy asoslangan dizayni ishlab chiqildi. Eksperiment oliy ta'lim muassasasida maxsus o'quv fani, tarbiyaviy faoliyatlar majmuasi hamda jadidlar merosiga tayangan integrativ yondashuvni joriy etishni nazarda tutadi. Shu orqali talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini kuchaytirish, jadid pedagoglarining ma'rifiy g'oyalarini zamonaviy ta'lim jarayoniga singdirish rejalashtirilgan. Tadqiqot metodikasida, shuningdek, talabalar va pedagoglar o'rtasida so'rovnoma, suhbat kabi usullar yordamida ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining holati diagnostika qilindi va yangicha mexanizm samaradorligini baholash ko'zda tutildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar natijasida jadidlar pedagogik merosini zamonaviy ta'limga integratsiya qilishning samarali yo'llari atroflicha yoritildi. Xususan, jadid mutafakkirlarining asarlarida ilgari surilgan ezgulik, halollik, adolat, vatanparvarlik singari fazilatlarni ta'lim mazmuniga singdirish uchun maxsus o'quv modullarini kiritish maqsadga muvofiq. Jumladan, oliy ta'limda "Jadid pedagogikasi va zamonaviy kasbiy ko'nikmalar" kabi yangi fan yoki modullarni joriy etish taklif etilmoqda. Bunday

fanni o'qitish jarayonida talabalar jadidlar tarixi, ma'rifiy g'oyalari va ularning bugungi kun kasbiy hayotiga ta'sirini chuqur o'rganadilar. Natijada, ular milliy taraqqiyot yo'lida jadidlar amalga oshirgan islohotlar mohiyatini anglab, o'zlarida milliy g'urur va fuqarolik pazitsiyalarini shakllantiradi.



Tadqiqot natijalaridan shu ma'lumki, ta'lim muassasalarida individual yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari va hamkorlikka asoslangan ta'lim usullarini joriy etish orqali talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish imkoniyati yanada ortadi.

Shuningdek, loyiha usulini qo'llash orqali talabalar jadidlar hayoti va ijodini mustaqil o'rganish, taqdimotlar tayyorlash kabi amaliy mashg'ulotlarga jalb qilinadi. Loyihaviy ta'lim elementlari – jadidlar merosiga oid tadqiqot loyihalarini bajarish – talabalarni faollashtirib, ularda jamoada ishlash va liderlik ko'nikmalari va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar alohida ahamiyatga: jadidlar asarlaridagi ijtimoiy-pedagogik g'oyalarni tahlil qilish orqali talabalar mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantiradi.

Jadidlar me'rosi doirasida ta'lim va tarbiya jarayonini boyituvchi tashkiliy-ma'naviy muhitni shakllantirish ham ko'zda tutildi. Bunda o'quv mashg'ulotlarini ma'naviyat soatlari, adabiy kechalar, teatrlashtirilgan chiqishlar bilan boyitish, jadidlarga bag'ishlangan ko'rgazma va tanlovlarni uyushtirish kabi tashabbuslar talabalar qalbiga chuqurroq ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot jarayonida shunday integratsiyalashgan yondashuv samarali ekani kuzatilib, talabalar jadidlar merosini nafaqat bilim darajasida o'zlashtirishlari, balki u yoritgan qadriyat va fazilatlarni o'z xulq-atvorlarida namoyon eta boshlashlari aniqlangan.

Yuqoridagi natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, jadidchilik pedagogikasiga asoslangan tarbiya metodlarini zamonaviy oliy ta'limga integratsiya qilish nafaqat tarixiy merosga hurmat ifodasi, balki zamonaviy ta'lim tizimini milliylik va umuminsoniy qadriyatlar bilan boyitishning samarali pedagogik asosidir. Jadidlar faoliyati asr boshida milliy uyg'onish g'oyalarini olib kelgan bo'lsa, bugungi kunda ularning merosini o'rganish va targ'ib etish yosh avlodni milliy o'zlikni anglagan, keng dunyoqarashli shaxslar etib tarbiyalashga xizmat qiladi. Shuningdek, jadid pedagogikasining asosiy xususiyatlari – yangicha metodika joriy etish, amaliy bilim va ko'nikmalarga urg'u berish, mustaqil fikrlashga yo'naltirish – bugungi ta'lim talablari bilan uyg'unlashadi. Shu o'rinda, taklif etilayotgan yangi fan va texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishda e'tibor berilishi lozim bo'lgan qator masalalar mavjud. Ulardan biri – pedagog kadrlar malakasi masalasi. Jadidlar merosini o'quv jarayoniga samarali integratsiya qilish uchun, avvalo, pedagoglarning o'zlari bu meros va uning pedagogik ahamiyatini chuqur bilishi, zamonaviy interfaol metodlarni qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur. Shunga ko'ra, malakali kadrlar tayyorlash maqsadida maxsus seminar-treninglar, metodik qo'llanmalar va

darsliklar yaratish dolzarbdir. Ikkinchi muhim jihat – oila va jamiyatning hamkorligi. Axloqiy tarbiya, Avloniy aytganidek, butun jamiyat mas'uliyatidagi jarayon ekan, talabalarning ma'naviy kamolotida ota-ona, mahalla va keng jamoatchilik ishtiroki ham muhim sanaladi. Oliy ta'lim muassasalarida "Jadidlar merosi" kabi fan yo'lga qo'yilsa, talabalar oilada, jamiyatda ham shu qadriyatlar bilan yashashiga erishish, ya'ni ta'lim-tarbiya uzviyligini ta'minlash lozim bo'ladi. Qolaversa, axborot texnologiyalari asri yoshlar ma'naviyatiga tahdid soluvchi yangi xatarlarning mavjudligi hamda turli zararli g'oyalarning yoshlar ongiga kirib kelishiga qarshi eng samarali chora – ularda mustahkam ma'naviy immunitetni shakllantirishdir. Jadidlar merosiga asoslangan tarbiya innovatsion mexanizmi aynan mana shu maqsadga xizmat qiladi. Chunki jadid ma'rifatparvarlari g'oyalari milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'un holda tarannum etadi, yoshlarni mutolaa va ilmga muhabbat, millatga sadoqat, yurtga fidoyilik ruhida tarbiyalashga undaydi. Bu g'oyalar zamonaviy interfaol usullar orqali yetkazilsa, talabalarning mafkuraviy immuniteti kuchayib, turli zararli ta'sirlarga tanqidiy yondasha oladigan, ruhiyati sog'lom va e'tiqodi mustahkam mutaxassislar tarbiyalashda g'oyat muhim vositadir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, talaba-yoshlarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishda jadidchilik pedagogikasiga tayanish ta'lim-tarbiya jarayonini yangi bosqichga ko'taruvchi muhim omildir. Jadidlar ilmiy-ma'rifiy merosi – bu nafaqat tarixiy boylik, balki zamonaviy ta'lim tizimi uchun amaliy asos bo'la oladigan bebaho manbadir. Ushbu merosni ta'lim mazmuniga integratsiya etish orqali biz talaba-yoshlarga nafaqat nazariy bilim beramiz, balki ularning hayotiy pozitsiyasi va axloqiy sifatlarining yaxlit shakllanishiga erishamiz. Shu bois, oliy ta'lim muassasalarida "Jadidlar merosi" kabi maxsus fanlarni joriy etish, o'quv jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng qo'llash kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif etiladi. Keltirilgan ilmiy izlanishlar va tajribalar shuni ko'rsatadiki, jadidchilik pedagogikasi asosidagi innovatsion mexanizm talabalar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'taradi. Kelgusida ushbu modelni amaliyotga tizimli tatbiq etish orqali yuksak ma'naviyatli, milliy va umuminsoniy

qadriyatlarni o'zida mujassam etgan barkamol avlodni voyaga yetkazish darajasi yanada oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. // <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasiprezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>.
2. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 160 b.
3. Abdurashidxonov M. Samarqand tarixi. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999. – 120 b.
4. A.Avloniy "Turkiy guliston yoki axloq" T.: YOSHLAR NASHRIYOT UYI. 2019. 31 bet.
5. A.Avloniy "Turkiy guliston yoki axloq" T.: YOSHLAR NASHRIYOT UYI. 2019. 21 bet.
6. A.Avloniy "Turkiy guliston yoki axloq" T.: Yoshlar nashriyot uyi. 2019. 17 bet.
7. Behbudiy M. Padarkush. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2014. – 72 b.
8. Bo'lajak tarix o'qituvchilariga jadidlar ilmiy merosini o'rgatish metodikasini takomillashtirishning pedagogik xususiyatlari Shaturayeva Sevara Tashmurotovna, Mutafakkirlar va jadid ma'rifatparvarlarining tarbiya turlariga oid ta'limotlari hamda undan foydalanish mexanizmlari mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy amaliy anjuman.
9. Qosimov B. Fitrat – istiqlol va ma'naviyat timsoli. – Toshkent: 2017.
10. Qosimov B. "Jadidchilik va o'zbek milliy tafakkuri". Adabiyotshunoslik jurnali, 2003.
11. Fitrat A. Oila yoki axloq darsi. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998. – 112 Gaspirali I. *
12. Kalandarova T. «UMUMIYPEDAGOGIKA» Ta'lim sohasi 110000 -Pedagogika Ta'lim yo'nalishi: barcha ta'lim yo'nalishlari uchun Urganch –2020 -177 b.
13. Историография национальных движений партий Средней Азии за период 1917-1991 гг. тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 07.00.09, доктор исторических наук Валиханова, Назира Сабировна
14. Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asaridan.
15. Mahmudxo'ja Behbudiy. Padarkush. Tanlangan asarlar. –Toshkent:"Ma'naviyat", 1997.
16. Культурно-просветительская деятельность джадидов в Бухарском эмирате, начало XX века тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 07.00.02, кандидат исторических наук Гафаров, Нуманджон Усманжонович
17. Kalandarova T. «UMUMIYPEDAGOGIKA» Ta'lim sohasi 110000 -Pedagogika Ta'lim yo'nalishi: barcha ta'lim yo'nalishlari uchun Urganch –2020 -177 b.